



## BOSHLANG'ICH SINFLARDA TEXNOLOGIYA TA'LIMINI INTEGRATSION YONDASHUV ASOSIDA TASHKIL ETISHNING NAZARIY VA METODIK YO'NALISHLARI

Ulugova Diyora Zafar qizi

*Toshkent Kimyo xalqaro universiteti 1-kurs magistri*

Xodiyeva Dilrabo Pirimovna

*Dotsent*

*Annotatsiya: Mazkur ishda boshlang'ich sinflarda texnologiya ta'limini integratsion yondashuv asosida tashkil etishning nazariy asoslari va metodik yo'nalishlari yoritilgan. Texnologiya fanining ta'lim tizimidagi o'rni, uning fanlararo bog'liqligi, o'quvchilarda amaliy tafakkur va ijodkorlikni rivojlantirishdagi ahamiyati tahlil qilingan. Tadqiqot davomida integratsion darslarni loyihalash, o'tkazish va baholash metodikasi ishlab chiqilib, amaliyotda sinovdan o'tkazilgan. Natijalar integratsion yondashuv asosida tashkil etilgan darslar o'quvchilarning faolligini, mustaqil fikrlashini hamda ijodiy salohiyatini oshirishga xizmat qiladi.*

O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda ta'lim-tarbiya tizimini modernizatsiya qilish, innovatsion va integratsion yondashuvlarni joriy etish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi [1].

Bu jarayon, boshlang'ich ta'lim bosqichida o'quvchilarning har tomonlama rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan. Boshlang'ich sinflarda texnologiya ta'limi o'quvchilarning amaliy faoliyatini, ijodiy fikrlashini, mehnatsevarlikni, mustaqillikni va estetik didini shakllantiradi.

Shu bois texnologiya fani nafaqat amaliy yo'nalishdagi dars, balki o'quvchilarda tafakkurni shakllantiruvchi fan sifatida qaralmoqda. Integratsion yondashuv o'quvchilarda bilimlarni bir butun tizim sifatida qabul qilish, turli fanlardan olingan bilimlarni hayotiy vaziyatlarda qo'llash imkonini beradi.

Shunday yondashuvni texnologiya ta'limiga joriy etish ta'lim samaradorligini oshirishning muhim omili hisoblanadi.

Tadqiqot maqsadi shundan iboratki, boshlang'ich sinflarda texnologiya ta'limini integratsion yondashuv asosida tashkil etishning nazariy va metodik asoslarini ishlab chiqish. Tadqiqot vazifalari esa, texnologiya ta'limining mazmuni va didaktik tamoyillarini tahlil qilish, integratsion yondashuvning pedagogik mohiyatini ochib berish, texnologiya darslarini boshqa fanlar bilan uyg'unlashtirish usullarini aniqlash, integratsion darslarni loyihalash va amalga oshirish bo'yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqish, tajriba-sinov ishlarini o'tkazib, ularning samaradorligini aniqlash. Shu bilan birga o'quvchining dunyoqarashi, mehnatga munosabati va ijodiy fikrlash poydevori yaratiladi. Texnologiya fani o'quvchilarda nafaqat mehnat ko'nikmalarini, balki mantiqiy, estetik va axloqiy sifatlarni ham rivojlantiradi.

Texnologiya ta'limining asosiy maqsadlari:



- o‘quvchilarda mehnat madaniyatini shakllantirish;
- ijodiy faoliyatga yo‘naltirish;
- milliy qadriyatlarga asoslangan texnologik tafakkurni rivojlantirish;
- fanlararo bog‘liqlik orqali integrallashgan o‘quv faoliyatini yaratish.

Integratsiya — bu ta‘lim jarayonida fanlararo aloqadorlikni ta‘minlash orqali o‘quvchilar tafakkurini shakllantirishdir [2]. Integratsion o‘qitish natijasida o‘quvchi o‘zlashtirgan bilimlarini turli holatlarda qo‘llay oladi, bu esa kompetensiyaviy yondashuvning amaliy ifodasidir. Shu jumladan, integratsion yondashuv texnologiya ta‘limida o‘qitish jarayonini yaxlit tizim sifatida tashkil etishga xizmat qiladi. Bu yondashuvning asosiy maqsadi — turli fanlarda olingan bilimlarni uyg‘unlashtirib, ularni amaliy faoliyatda qo‘llashga o‘rgatishdir.

Integratsion darslarni loyihalash quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi: tahlil bosqichi – o‘qituvchi o‘quv dasturlarini tahlil qilib, mavzulararo umumiylikni aniqlaydi, rejalashtirish bosqichi – fanlararo bog‘liqlik asosida dars maqsadi, vositalar va metodlarni belgilaydi, amaliy bosqich: o‘quvchilarni ijodiy faoliyatga jalb etuvchi topshiriqlar orqali bilimlarni mustahkamlaydi, baholash va refleksiya: o‘quvchilarning o‘z faoliyatiga baho berish va xulosa chiqarish malakasini shakllantiradi. Integratsion darslarga misollar keltiradigan bo‘lsak, masalan: “Geometrik shakllardan bezak yasaymiz” (Matematika + Texnologiya) — o‘quvchilar geometrik figuralarni o‘lchash, qirqish, kompozitsiya yaratish orqali dizayn ko‘nikmalarini rivojlantiradilar. “Tabiat materiallaridan ijod qilamiz” (Tabiatshunoslik + Texnologiya) — tabiatdagi materiallardan foydalangan holda ekologik loyihalar tayyorlanadi. “Milliy hunarmandchilik” (Tasviriy san‘at + Texnologiya) — milliy qadriyatlarni ifodalovchi buyumlar yasash orqali estetik va madaniy ong rivojlanadi. Bunday darslar o‘quvchilarda tahlil qilish, mantiqiy bog‘liqlikni anglash, ijodkorlik, jamoada ishlash va mehnat madaniyatini shakllantiradi.

Zamonaviy ta‘lim jarayoni raqamli texnologiyalar, loyiha asosida o‘qitish (project-based learning), STEAM yondashuvi va kompetensiyaviy ta‘lim kabi ilg‘or yo‘nalishlarga asoslanmoqda. Shu sababli texnologiya ta‘limini integratsion asosda tashkil etish bugungi kunda quyidagi yo‘nalishlarda takomillashtirilmoqda, masalan: STEAM-integratsiya (Science, Technology, Engineering, Art, Mathematics) – texnologiya fani orqali boshqa tabiiy va gumanitar fanlarni bog‘lash, o‘quvchilarni kompleks fikrlashga o‘rgatish [3]. Loyiha asosida ta‘lim – o‘quvchilarni real hayotga yaqin topshiriqlarni mustaqil yoki jamoaviy bajarishga jalb etish. Raqamli integratsiya – darslarda interaktiv platformalar (Canva, GeoGebra, Tinkercad, ClassDojo) orqali modellashtirish va dizayn elementlarini o‘rgatish. Madaniy-integratsion yondashuv – texnologiya fanini milliy qadriyatlar, xalq amaliy san‘ati, hunarmandchilik bilan uyg‘unlashtirish. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, maktab amaliyotida integratsion yondashuvni joriy etishda bir qator muammolar mavjud:

- O‘qituvchilarning fanlararo aloqadorlikni chuqur anglamasligi [4];
- O‘quv-metodik majmualarda integratsion darslarga oid materiallar yetarli emasligi;
- Darslarni texnik vositalar bilan ta‘minlashning sustligi;
- Baholash tizimining integratsion o‘qitishga moslashtirilmaganligi.

Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun quyidagi takliflar ishlab chiqildi:



- Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini qayta tayyorlash va malaka oshirish dasturlariga integratsion o‘qitish modullarini kiritish;
- Integratsion darslar uchun namunaviy elektron metodik qo‘llanmalar yaratish;
- Texnologiya faniga mo‘ljallangan virtual laboratoriyalarni tashkil etish;
- Baholash mezonlarini amaliy faoliyat, ijodiy loyiha va guruh ishlariga asoslash.

Yuqoridagilardan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, boshlang‘ich sinflarda texnologiya ta‘limini integratsion yondashuv asosida tashkil etishning nazariy va metodik jihatlari o‘rganildi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, integratsion yondashuv o‘quvchilarning tafakkuri, ijodiy qobiliyatlari va amaliy ko‘nikmalarini sezilarli darajada rivojlantiradi.

Integratsion yondashuv fanlararo bog‘liqlikni ta‘minlash, o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga, kreativ qarorlar qabul qilishga o‘rgatish va amaliy bilimlarni hayotiy vaziyatlarda qo‘llash imkonini beradi. Bu o‘quvchilarda ijodkorlikni, fanlararo bilim tizimini o‘zlashtirishni va jamoaviy ishlash ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Amaliy jihatdan integratsion yondashuvni tatbiq etish o‘quvchilarning amaliy ko‘nikmalari, san‘at va texnologiya fanlaridagi bilimlari, ekologik va milliy qadriyatlarga hurmatini oshiradi. Shu bilan birga, o‘qituvchilar uchun metodik tavsiyalar va elektron resurslar yaratish orqali darslarni yanada samarali tashkil etish mumkin.

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, texnologiya fanini integratsion yondashuv asosida o‘qitish o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, ijodiy faoliyat va amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi hamda ularni kundalik hayot va keyingi ta‘lim bosqichlariga tayyorlaydi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to‘g‘risida”gi farmoni, 2019-yil 8-oktabr, PF-5847.
2. Abdullayeva D. “Ta‘limda integratsion yondashuvning nazariy asoslari.” Pedagogika jurnali, 2020.
3. Yo‘ldosheva G. “STEAM-ta‘lim yondashuvi: nazariya va amaliyot.” Boshlang‘ich ta‘lim, 2022.
4. Qodirova N. Boshlang‘ich ta‘lim metodikasi. – Toshkent: Fan, 2019.
5. Qayumova D., “Texnologiya ta‘limini tashkil etishda integratsion yondashuv.” Ta‘lim va innovatsiya jurnali, 2021.
6. Hasanboeva O., Pedagogika: Nazariya va amaliyot. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2018.
7. Kattabekova M. “Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ijodiy tafakkurni rivojlantirishda texnologiya fanining o‘rni.” Ta‘lim jarayoni, 2021.